

## MIYOKARD INFARKTI PAYDO BO'LGANDA



Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

MAXMUDOVA LOLAXON SADULLOYEVNA

NAMOZOVA UMIDA ABDURAFIQ QIZI

Annotatsiya : Ushbu maqola miyokard infarct kasalligi paydo bo'lishi sabablari , klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash , zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of myocardial infarction, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Аннотация: Данная статья призвана описать причины инфаркта миокарда, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Miokard infarkti deb, yurakdagi toj arteriyalardan birining birdan tiqilib qolishi natijasida ro'y beradigan holatiga aytildi. Bunda yurak muskuli nekrozga uchraydi.. Bu xastalikda toj tomirlar, yani miokardni qon bilan taminlaydigan tomirlar bo'y lab qon oqishi buziladi, bu yurak sohasida yoki tosh orqasida og'riq paydo bo'lishiga olib keladi. Toj tomirlar bo'y lab qon oqishiga ko'pgina quyidagi omillar to'sqinlik qilishi mumkin: toj arteriyalar spazmi, aterosklerotik pilakchalar, katta jismoniy yoki asabiy zo'riqishlarda miokardning zo'r berib ishlashi.

Yurak-tomirlar sistemasi va katta miya po'stlogi o'rtasidagi chambarchas bog'lanishni bilgan holda koronar arteriyalar innervatsiyasi buzilishlari rivojlanishida va koronar yetishmovchilik miokard infarktining asosiy omilidir. Miokard infarktida

ishemiya (qon ta□minoti kamayishi) dan, keyin esa u yoki bu bo□limida nekroz o'chogi ham paydo bo'ladi.

Miokard infarktida qonsizlangan va nekrozga uchragan miokard uchastkasi chandiq (yamoq) lanishga uchraydi. Biriktiruvchi to'qima rivojlanadi, qattiq chandiq hosil bo'ladi. Yurak o'z funksiyasini davom ettiradi, biroq infarktdan keyin miokard kuchsizlanib qoladi. Yurakning o'tkazuvchi sistemasini keng zararlantirgan miokard infarktida o'tkir yurak yetishmovchiligi yuz berishi va yurak to'xtashi mumkin. Miokard infarkti aksariyat ateroskleroz, gipertoniya kasalligi bilan kasallangan shaxslarda sodir bo□ladi. Stenokardiyani bu kasallikning darakchisi deb hisoblaydilar, biroq ba'zan miokard infarkti to'satdan yuz beradi.

Yurak sohasida yoki to'sh orqasida og'riq to'satdan paydo bo'lib, chap yelkaga, chap kurakka, pastki jag'ga va tananing boshqa qismlariga o'tadigan og'riq miokard infarktining asosiy simptomi hisoblanadi.

Davolash. Miokard infarktining davosi maxsus tez yordam mashinalar brigadasida, shifoxonalarda, poliklinikada, sanatoriyada o'tkaziladi. Bemorni kasalxonaga keltirguncha unga tezlik bilan yordam ko'rsatish zarur. Og'riq qoldiruvchi, yurak urishi tezligini pasaytirish uchun dori-darmonlar qo'llaniladi. Bemor shifoxonaning reanimatsiya bo'limiga yotqiziladi. O'rinda qimirlamay yotish, psixik, jismoniy osoyishtalik ta'minlanadi.

Dorilar ta'sirida og'riq qolmasa, narkoz-zakis azot bilan kislarodning 50:50 aralashmasi nafas olishga beriladi. Narkoz ta'siri bo'lgandan keyin to'xtatiladi. Kerak bo'lganda narkozning boshqa xillari ham qo'llanilishi mumkin (natriy oksibutirat, geksenal). Og'riq qoldirishda orqa miyaning old qismiga trimekain yuborish maqsadga muvofiq.

Geparin bilan davolash. 1- kun geparin vena tomiriga tomchi holida 1000-5000 TB yuboriladi, keyin qorinning pastki qismiga, teri ostiga 10000 TB dan 1 kunda 2 marta yuboriladi yoki 5000 TB geparin har kuni 4 mahal teri ostiga 7 kun davomida

yuboriladi. Bunda qonning ivish vaqtini, qondagi eritrotsitlarni, gemoglobinni, siydikda gemituriyani aniqlash kerak. Bilvosita ta□sir qiladigan antikoagulantlardan neodikumarin, sinkumar yoki fenilin qo'llaniladi.

Parvarishi. Miokard infarkti bilan og□rigan bemorlarni parvarish qilishda yotoq yaralarining oldini olish muhimdir. Bemorning o'rindagi vaziyatini o'zgartirishda o'rinc-ko'rpa, kiyimlarini almashtirganda nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ish ko'rish, bemorni urintirishga, keskin harakatlar qilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bemorga o'rindan turishga ruxsat berilgandan so'ng ham gorizontal holatdan vertikal holatga asta-sekinlik bilan o'tiladi.

Bemorga davolovchi gimnastika birmuncha barvaqt tayinlanadi. Bemorni to'g'ri parvarishlash, uning sog'ayib ketishiga umid tug'dirish tibbiyat hamshirasining eng muhim vazifalaridan biridir. Bemorlarning sog'ligini qayta tiklashda ochiq havoda belgilangan vaqt davomida sayr qilish, fizioterapeutik muolajalar, sanatoriya-kurortlarda davolanish juda muhimdir. Bemorlar yashab turgan joylaridagi poliklinikalarda dispanser ro'yxatida turadilar va shifokor nazorati ostida bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.F. Ziyayeva Terapiya 2007y.
2. <https://sam.innova.uz/>